

## EKOLOGIYANI CHIQINDIDAN ASRAYMIZ

**Xolmaxmadova Elzoda**

Shahrisabz davlat pedagogika instituti Biologiya yo'nalishi 2-kurs talabasi

**Annotatsiya:** Dunyo miqyosida chiqindilar muammosi eng dolzarb ekologik masalalardan biriga aylanib bo'ldi. Chiqindi xomashyosi qimmatbaho hisoblanadi. Ushbu matnda chiqindi masalasi global muammo sifatida tahlil etilgan. Olingan xulosalar asosida takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** chiqindi, qog'oz, makalatura, qog'oz, plastik, rezina, ekologik muammo, Ekologik xavfsizlik, intellektual kuch, „TOSHRANGMETZAVOD“, og'ir metallar

Dunyo miqyosida chiqindilar muammosi eng dolzarb ekologik masalalardan biriga aylanib bormoqda. Tahlillarga ko'ra, so'nggi yillarda maishiy va sanoat chiqindilarning yildan-yilga ortayotgani yer yuzidagi ekologik barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ma'lumotlarga qaraganda, hozirgi kunda chiqindilarning 900 ga yaqin turi qayd etilgan. Har yili dunyoda chiqindilar hajmi 5% ga ko'paymoqda.

Atrof-muhitni ishlab chiqarish va iste'mol chiqindilaridan muhofaza qilish tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda ekologik toza texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish muammolari bilan uzviy bog'liqdir. Ko'p asrlar davomida chiqindilarni noto'g'ri boshqarish tabiiy resurslar o'zgarishga, tabiat hodisalarining buzilishiga sabab bo'lmoqda. Bu chiqindilarning 80% izini organik moddalar tashkil qiladi va ularni qayta ishlash natijasida katta miqdordagi energiya tashuvchilarni ishlab chiqarish mumkin. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi uning 85% izini qayta ishlash mumkinligini ko'rsatmoqda.

Chiqindilarni qayta ishlash elektr energiyasi va suvdan foydalanishni bir necha barobarga kamaytiradi. Masalan, makalaturadan qog'oz olish nafaqat daraxtlarning kesilishini kamaytiradi, balki elektr quvvatining sarfini to'rt dan uch qismga qisqartiradi. Bir tonna qog'ozni qayta ishlab chiqarishga uni yog'ochdan tayyorlash uchun ketadigan suvning yarmi sarf bo'ladi.

Tobora ko'payib borayotgan elektron chiqindilar ham insoniyatga xavf solmoqda. Har yili yer yuzida 2 million tonnaga yaqin elektron chiqindi paydo bo'lmoqda. Misol uchun, birgina mobil aloqa vositasi 500 tadan 1000 tagacha turli qismlardan tashkil topgan. Ularning ko'pchiligi zaharli og'ir metallar – simob, qo'rg'oshin, kadmiy va boshqa xavfli kimyoviy moddalarni o'z ichiga oladi.

Bugungi kunda mamlakatimizda atrof-muhitni muhofaza qilish, aholi salomatligini himoyalash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik xavfsizlikni ta'minlashga yo'naltirilgan izchil ekologik siyosat yuritmoqda. Ekologik xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha muhim huquqiy, tashkiliy va ijtimoiy- iqtisodiy chora-tadbirlar amalga oshirmoqda.

Chiqindilarni qayta ishlovchi va utilizatsiya qiluvchi korxonalar kam chiqimli texnologiyalarni olib kirish sohani rivojlantirishning eng samarali usuli hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatimizdagi 500 ga yaqin korxonalar qog'oz, plastik, rezina, shisha, metall va boshqa ikkilamchi chiqindilarni qayta ishlamoqda.

„TOSHRANGMETZAVOD“ aksiyadorlik jamiyati rangli metallarni yig'ish va qayta ishlash sohasida ixtisoslashgan korxonalar bo'lib, zamonaviy asbob-uskunalar, ilg'or texnologiyalar bilan ta'minlangan. Yuqori malakali xodimlar faoliyat ko'rsatmoqda Zavod

# ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-OKTABR

ANDIJON, 2024

rangli metall parchalari va chiqindilarni yig'ish, rangli metallarga birlamchi ishlov berish, ishdan chiqqan qo'rg'oshinli akklumulyatorlarni to'plash va ularni qayta ishlash bilan shug'ullanadi. 2021-yilda korxonadan 300 tonna elektron chiqindi qayta ishlandi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, yuqoridagi muammolarni yechish uchun vaqt nihoyatda qisqa, hammasi bo'lib bir asr bilan belgilangan. Bu butun yer kurrasi ahamiyatiga molik nihoyatda buyuk va shu vaqtning o'zida muhim muammoni yechish uchun yuksak intellektual kuchlar va juda katta mablag' talab qiladi. Buning uchun ilmiy tadqiqot ishlari xalqaro ko'lamda olib borilishi lozim bo'ladi.

Maishiy chiqindilarni to'plash, tashish, qayta ishlash, utilizatsiya qilish va ko'mish ishlarining samarali tizimini tashkil etish ekologik muammolarni bartaraf etish bilan birga mamlakatimiz iqtisodiyotiga ham foyda keltiradi.

Ilmiy tadqiqot ishlarining natijalarini samaraU ravishda hayotga tadbiq etish uchun yuksak xurmatga ega bo'lgan xalqaro apparat bunyodga kelmog'i talab qilinadi. Hozirgi zamon fani yuksak rivoj darajasiga ega, ekologiyaning global muammolarini hal qilish uchun intellektual kuch yetarli va bu muammo ma'lum davr ichida yechilishi muqarrar. XXI asr boshida insoniyat qanday muammolar bilan to'qnash kelmoqda? Bu oddiy ritorik dabdaba emas. Hozirgi kunda yer kurrasining deyarli barcha mamlakatlarida namoyon bo'layotgan sotsial-iqtisodiy krizis inson va tabiat muammosi bilan vobasta bo'lgan global ekologik muammolar tufayli chuqurlashib borayotir. Bu muammolar qo'qqisidan yuzaga kelmagan. U insoniyatning butun tarixiy taraqqiyoti davomida murakkablasha borgan, insonning xo'jalik faoliyati davomida, kishilik jamiyatining tabiat bilan o'zaro munosabatlari jarayonida sodir bo'lgan.

Tabiatni muhofaza qilish tabiat va uning boyliklaridan oqilona foydalanishga, tabiatni inson manfaatlarini ko'zlab ongli ravishda o'zgartirishga, tabiat boyliklari va umuman tabiatni, uning go'zalligi, musaffoligini saqlab qolishga va yanada boyitishga qaratilgan barcha tadbirlar majmuasi. Tabiatni muhofaza qilish tadbirlari majmuasiga davlatlar, xalqaro tashkilotlar, jamoat, ilmiy-texnik, ishlab chiqarish, iqtisodiy va ma'muriy tashkilotlar, har bir odam tomonidan amalga oshiriladigan tadbirlar kiradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

S.Mustafoev, S.O'roqov, P.Suvonov. Umumiy ekologiya. Darslik. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamgarmasi nashriyoti, -T.: 2006. 400 b.

Tilolov. T. Ekologiyaning dolzarb muammolari. – Qarshi : Nasaf. 2003

Qudratov . O. Sanoat Ekologiyasi